

# TTPU da radioefirga start berildi

2022 yil 21 oktabr kuni o'zbek tili bayrami munosabati bilan, universitet talabalari tashabbusi bilan TTPUda "Nazm va navo" nomli radio efirining birinchi soniga start berildi.

Efir davomida o'zbek tilining tarixi, uning rivoji uchun hissa qo'shgan buyuk arboblarmiz Alisher Navoiyning „Muhokamat-ullug'atayn“, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Gulxaniyning "Zarbulmasal", Fazliyning "Majmuatush shuaro" kabi asarlari, shuningdek zamonamiz o'zbek adabiyoti durdonalaridan na'munalar (she'r va g'azallar) talabalar va ustoz-murabbiylar tomonidan ifodali o'qib berildi. Shuningdek, musiqa to'garagi rahbari Mansur Saparbaev tomonidan o'zbek mumtoz kuy-qo'shiqlari va universitetga bag'ishlangan qo'shiqlar ijro etildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbek tili va umuman olganda til haqida qancha gapirsak ham oz. Haqiqatan, millatning qiyofasi uning til boyligi bilan namoyon bo'ladi. So'z o'rnida buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: «Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur» degan so'zlarini ta'kidlash mumkin.

Bayramona kayfiyatda o'tgan efir orqali, bugungi kunning mazmun mohiyati, qadr-qimmatini to'g'risida ma'lumotlar berilib, talaba-yoshlarda sof ona tilimizga, nazm va navoga qiziqish uyg'otishga erishildi degan umiddamiz.